

STRATEGIK BOSHQARUV VA MAKTABNI RIVOJLANTIRISH

(MA'RUZA MATNI)

Reja:

1. Maktab boshqaruvida strategiyaning zarurati
2. Maktab missiyasini shakllantirish
3. Maktabning vizyoni (kelajak manzarasi)
4. Strategik maqsad va ustuvor yo'nalishlar
5. Strategiyani amalga oshirish mexanizmlari
6. O'zgarishlarga nisbatan qarshilikni samarali boshqarish.
7. Maktabni lohiya sifatida boshqarish va maktab ichida loyihalarni amalga oshirish.

Dars maqsadi. Tinglovchilarda umumiy o'rta ta'lim muassasasini rivojlantirishda strategik menejmentning mazmuni va ahamiyati haqida tizimli bilimlarni shakllantirish, maktabning missiyasi, vizyoni va strategik maqsadlarini belgilash, ichki va tashqi muhitni strategik tahlil qilish (SWOT tahlili) orqali rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash hamda strategik rejalashtirish, strategiyani amalga oshirish mexanizmlari va maktabni loyiha asosida boshqarish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish.

Kutiladigan natijalar:

tinglovchilar strategik menejmentning mazmuni va ta'lim muassasasini boshqarishdagi ahamiyatini anglab yetadi;

tinglovchilar maktabning missiyasi, vizyoni va strategik maqsadlarini shakllantirish tamoyillarini o'rganadi;

tinglovchilar maktab faoliyatining ichki va tashqi muhitini tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlar hamda imkoniyat va xavf-xatarlarni aniqlash ko'nikmalariga ega bo'ladi;

tinglovchilar SWOT tahlili asosida strategik muammolarni aniqlash va ustuvor yo'nalishlarni belgilashni o'rganadi;

tinglovchilar strategik rejalashtirish jarayonini tashkil etish va strategik chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha bilimga ega bo'ladi;

tinglovchilar strategiyani amalga oshirishda operatsion, taktik va strategik rejalar uyg'unligini ta'minlash usullarini tushunadi;

tinglovchilar strategik boshqaruvda transformatsion liderlikning rolini anglaydi;

o'zgarishlarga qarshi xodimlar bilan ishlash ko'nikmalari rivojlanadi;

tinglovchilar maktabni loyiha sifatida boshqarish va maktab ichida rivojlantiruvchi loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalarini egallaydi.

strategik faoliyat natijalarini baholash va monitoring qilish usullarini bilib oladi;

o'z maktablari uchun strategik rivojlanish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish ko'nikmasi shakllanadi.

Maktab boshqaruvida strategiyaning zarurati. Strategiya maktabning buguni va kelajagini maqsadli, tizimli va samarali boshqarishga xizmat qiladi. Maktab boshqaruvida strategiyaning zaruratini quyidagi omillar bilan asoslash mumkin:

1. Maktabning aniq maqsad va yo'nalishni belgilaydi. Bunda strategiya maktab qayerda turibdi, qayerga borishi kerak, bunga qanday erishishini aniq ko'rsatib beradi. Bu esa barcha xodimlar uchun yagona yo'nalish belgilab beradi.

2. Ta'lim sifatini oshiradi va maktab ko'rsatgichlarini yaxshilaydi. Strategiya orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish rejalashtiriladi va nazorat qilinadi.

3. Resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Bunda maktabning moliyaviy, kadrlar, moddiy-texnik resurslari tartibli rejalashtiriladi va behuda sarf-xarajatlarning oldi olinadi.

4. O'zgarishlarga tayyorlikni kuchaytiradi. Bugungi kunda ta'lim tizimi tez o'zgarib bormoqda. Strategiya yangi davlat talablari,

raqamlashtirish, ijtimoiy ehtiyojlarga maktabni moslashtirishga yordam beradi.

5. Mas'uliyat va hisobdorlikni oshiradi. Aniq strategiya bo'lsa kim nima uchun javobgar ekani, natijalar qanday baholanishi aniq bo'ladi. Bu boshqaruv intizomini mustahkamlaydi.

6. Jamoani birlashtiradi va motivatsiyani oshiradi. Strategiya direktor, o'rinbosarlar, o'qituvchilarni umumiy maqsad atrofida birlashtiradi va jamoada ishonch va tashabbusni kuchaytiradi.

7. Maktab obro'sini oshiradi. Rejali va izchil boshqaruv maktabning ota-onalar, mahalla, ta'lim boshqaruv organlari oldida yuqori ishonch va nufuzga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Demak, strategiya maktabni qisqa muddatli muammolar bilan emas, uzoq muddatli rivojlanish asosida boshqarish imkonini beradi.

Maktab missiyasi – bu maktabning jamiyat oldidagi asosiy vazifasi, ya'ni “biz nima uchun mavjudmiz?” degan savolga javobdir. Missiyani to'g'ri aniqlash strategik boshqaruvning eng muhim bosqichlaridan biridir.

Maktab missiyasini aniqlashning quyidagi bosqichlari mavjud:

1. Maktabning asosiy vazifasini aniqlash. Masalan, “Maktabimiz o'quvchilarga sifatli ta'lim berish va ularni ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash uchun faoliyat yuritadi”.

2. Ta'lim va tarbiya qadriyatlarini belgilash. Masalan, halollik, vatanparvarlik, mas'uliyat, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, kommunikativlik, raqamli savodxonlik.

3. Maktabning o'ziga xos jihatlarini hisobga olish. Masalan, joylashuvi, ijtimoiy muhiti, o'quvchilar kontingenti.

4. Davlat ta'lim siyosati va normativ hujjatlarga moslik.

5. Jamoa ishtirokida ishlab chiqish.

6. Qisqa, aniq va tushunarli jumlar bilan ifodalanishi. Masalan, “Maktabimiz har bir o'quvchining qobiliyatini rivojlantirib, uni bilimli, ma'naviy yetuk va raqobatbardosh shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi”.

Maktabning vizyoni (kelajak manzarasi) – bu maktab 5–10 yil ichida qanday ta’lim muassasasiga aylanishini tasvirlab beruvchi aniq va ilhomlantiruvchi tasavvurdir. Vizyon “biz kelajakda qanday maktab bo’lishni xohlaymiz?” degan savolga javob beradi.

Maktab vizyonini shakllantirishning quyidagi bosqichlari mavjud:

1. Hozirgi holatni chuqur tahlil qilish (START nuqta). Bunda SWOT-tahlil (kuchli va zaif, imkoniyat va xavf-xatarlar) va PEST-tahlil (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik omillar) hamda maktabning raqobatbardoshligi (hududiy maktablar bilan solishtirish)ga e’tibor qaratiladi.

2. Kelajak talablarini aniqlash (5 yoki 10 yildan keyin bizning bitiruvchilarimiz qanday bo’lishi kerak?)

3. Vizyonni missiya va qadriyatlar bilan uyg’unlashtirish. Ya’ni maktab missiyasini davom ettirishi va asosiy qadriyatlarga zid bo’lmasligi kerak. **Missiya (nega mavjudmiz) → Vizyon (qayerga boramiz).**

4. Jamoa bilan birgalikda tasavvur yaratish. Vizyon direktor tomonidan yakka holda emas, balki jamoa bilan shakllantiriladi. “Tasavvur qiling, 2030-yilda sizning maktabingiz haqida ijtimoiy tarmoqlarda maqola chiqdi. U yerda nimalar yozilgan bo’ladi.?”

5. Vizyonni aniq, ilhomlantiruvchi va o’lchab bo’ladigan jumla bilan ifodalash.

6. Vizyonni qisqa va esda qoladigan shaklda yozish. Masalan, “Maktabimiz 2030-yilga borib har bir o’quvchining salohiyati ochiladigan, o’qituvchi doimiy rivojlanadigan va ota-ona ishonch bilan tanlaydigan zamonaviy ta’lim maskani bo’ladi”.

7. Vizyonni strategik hujjatlarga va amaliyotga bog’lash. Vizyon rivojlanish strategiyasi, yillik reja, KPI va indikatorlar orqali amalga oshiriladi.

Demak, **Vizyon** – bu kelajak xaritasi. U maktabni bugungi muammolardan yuqoriroq darajada fikrlashga undaydi. To’g’ri shakllangan vizyon jamoani ilhomlantiradi va birlashtiradi.

Strategik maqsad va ustuvor yo'nalishlar tasodifan emas, balki tizimli tahlil va kelajakni ko'ra bilish asosida belgilanadi. Quyida strategik maqsad va ustuvor yo'nalishlarni shakllantirish bosqichlari aks ettirilgan:

1. Boshlang'ich tahlil (REAL HOLAT). Bunda ustuvor yo'nalishlar SWOT-tahlil qilinadi va eng og'riqli muammolar va rivojlanish imkoniyatlari aniqlanadi.

2. Davlat siyosati va tashqi talablarni hisobga olish orqali majburiy va ustuvor yo'nalishlar aniqlanadi.

3. Strategik maqsad va ustuvor yo'nalishlar missiya va vizyonga moslashtiriladi. Missiya → hozirgi vazifa. Vizyon → kelajak manzarasi. Strategik maqsadlar bu ikkisi o'rtasidagi ko'prikdir. Bunda "Muammo + imkoniyat + vizyon = strategik maqsad" formulasi ishlaydi. Misol sifatida:

Muammo: boshlang'ich sinflarda savodxonlik past.

Imkoniyat: yosh va salohiyatli o'qituvchilar bor.

Vizyon: sifatli ta'lim beruvchi maktab.

Strategik maqsad: "2026–2030-yillarda boshlang'ich sinflarda o'qish va matematika savodxonligini barqaror oshirish".

4. Ustuvorlikni tanlash. Maktab bir vaqtning o'zida hamma yo'nalishda kuchli bo'la olmaydi. Shu sababli ustuvorlikni tanlashda "eng katta ta'sir beradimi?", "real sharoitda bajariladimi?" "5 yil ichida natija beradimi?" mezonlariga asoslanish maqsadga muvofiq. Strategik maqsadlar 3-5 tadan oshirmasligi muhim ahamiyatga ega.

5. Strategik maqsadlarni to'g'ri ifodalash. Bunda SMART tamoyili (S – aniq, M – o'lchanadi, A – erishish mumkin, R – muhim, T – vaqt bilan bog'langan) asosida strategik maqsadlarni shakllantirish zarur.

6. Ustuvor yo'nalishlarni strukturalash. Masalan, strategik maqsadlar quyidagi bloklarga ajratilishi mumkin: ta'lim sifati, kadrlar salohiyati, tarbiya, raqamli rivojlanish, boshqaruv va hamkorlik.

7. Jamoa bilan kelishish va tasdiqlash. Strategiya pedagogik kengashda muhokama qilinadi, takliflar inobatga olinadi, rasmiy hujjat sifatida tasdiqlanadi.

Shu o'rinda missiya, vizyon va strategik maqsadlarni o'zaro farqlab olish maqsadga muvofiq (1-jadval).

1-jadval. Missiya, vizyon va strategik maqsadlarni o'zaro farqi

Mezoni	Missiya	Vizyon (kelajak manzarasi)	Strategik maqsad
Asosiy savol	Biz nega mavjudmiz?	Kelajakda qanday maktab bo'lamiz?	Vizyonga erishish uchun nimalarga erishamiz?
Vaqt yo'nalishi	Bugun va doimiy	5–10 yil	3–5 yil
Mazmuni	Asosiy vazifa va xizmat	Kelajakdagi ideal holat	Aniq natijalar
Aniqlik darajasi	Umumiy	Keng, tasviriy	Aniq va o'lchab bo'ladigan
O'lchov (KPI)	Yo'q	Yo'q	Bor
Son jihat	1 ta	1 ta	3–5 ta
Til uslubi	Qisqa, mazmunli	Ilhomlantiruvchi	Boshqaruvga yo'naltirilgan
O'zgaruvchanlik	Kam o'zgaradi	Vaqtı-vaqtı bilan	Rejalarga qarab yangilanadi
Kim uchun	Jamiyat va jamoa	Jamoani ilhomlantirish uchun	Rahbariyat va ijrochilar uchun
Asos bo'ladigan hujjatlar	Nizom, konsepsiya	Strategiya	Yillik reja, yo'l xaritasi

Strategiyani amalga oshirish mexanizmlari. Strategiya faqat hujjat bo'lib qolmasligi uchun maktab direktori quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- Strategik rejani yillik va choraklik rejalarga aylantirish;
- mas'ul shaxslarni belgilash;
- Resurslarni (kadr, moliya, vaqt) taqsimlash;
- kutilayotgan natijalarni prognoz qilish;

jamoani strategiyaga jalb qilish. Bunda muhim jihat shundaki, o'qituvchilar strategiyani "o'z rejam" deb his qilishi zarur.

O'zgarishlarga nisbatan qarshilikni samarali boshqarish. Bunda, avvalo, qarshilik sabablarini aniqlash zarur. O'zgarishlarga qarshilik ko'pincha quyidagi sabablar bilan yuzaga keladi:

- 1. Noto'g'ri yoki yetarli tushuntirish berilmasligi** – odamlar nima va nima uchun o'zgaryapti, bilmaydi.
- 2. Qo'rquv** – yangi talablar, texnologiyalar yoki vazifalar ularga murakkab ko'rinadi.
- 3. O'zgartirishga ishonchsizlik** – ilgari tajribada o'zgarish muvaffaqiyatsiz bo'lgan.
- 4. Rivojlanishdan manfaat ko'rmaslik** – shaxsiy yoki professional foyda yo'qligi.
- 5. Odat va qulaylikdan voz kechish** – mavjud tizim bilan ishlash osonroq ko'rinadi.

Qarshilikni kamaytirishning **7 samarali usuli** mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

1. Aniq va shaffof kommunikatsiya. O'zgarish sababi va maqsadini xodimlarga tushuntirish. Masalan, "2026-yildan yangi baholash tizimi joriy qilinadi, maqsad o'quvchilarni individual rivojlantirishni kuchaytirish".

2. Qarorlar qabul qilish jarayoniga o'qituvchilarni ham jalb qilish. Bunda xodimlar "bu bizning tashabbusimiz" deb his qiladi, qarshilik kamayadi.

3. O'qituvchilarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash. Masalan, raqamli baholash tizimi uchun har bir o'qituvchi 2 hafta seminarga jalb qilinadi.

4. Rivojlanish va rag'batlantirish. Yangi tizimga moslashgan xodimlarni rag'batlantirish, qisqa muddatli kichik yutuqlarni nishonlash orqali natija va tajribani tan olish boshlanadi.

5. Barqaror qo'llab-quvvatlash va monitoring. Jarayon davomida nazorat qilish va xodimlarga maslahatlar berish

6. Ochiq fikr almashish muhitini yaratish. Qarshilikni tanqid sifatida qabul qilish, takliflar va mulohazalarni amaliyotga tatbiq etish.

7. O'zgartirishni bosqichma-bosqich joriy qilish. Katta o'zgarishlarni kichik bosqichlarga bo'lish, har bosqich natijasini tahlil qilib keyingiga o'tish.

O'zgarishlarga maktab jamoasini moslashtirish va qarshiliklarni bartaraf etishda strategik boshqaruv saharoitida transformatsion liderlikning ahamiyati muhim hisoblanadi. Ya'ni transformatsion liderlar:

Vizyonni jamoaga singdiradi – xodimlar o'zini orqaga tortmay, maqsad sari harakat qiladi.

Innovatsion madaniyat yaratadi – yangi loyihalar qabul qilinadi va sinovdan o'tadi.

O'zgarishlarni boshqaradi – qarshiliklar kamayadi, jamoa moslashadi.

Barqaror rivojlanish ta'minlaydi – strategik maqsadlar bir martalik emas, tizimli amalga oshadi.

Maktabni lohiya sifatida boshqarish va maktab ichida loyihalarni amalga oshirish. Maktabni loyiha sifatida boshqarish – bu maktabni aniq maqsadlar, vaqt, resurs va natijalarga asoslangan tizimli jarayon sifatida ko'rish. Bunda har bir faoliyat, masalan, o'quv jarayoni alohida loyiha sifatida rejalashtiriladi. Har bir loyiha vazifa, mas'ul shaxs, muddat va natija bilan belgilanadi. Bu yondashuvning qulayligi shundaki, resurslar samarali

taqsimlanadi, mas'uliyat aniq bo'ladi, natijalar o'lchanadi va tahlil qilinadi. Masalan, "boshlang'ich sinflarda savodxonlikni oshirish" maktabning strategik loyihasi sifatida har bir sinf, o'qituvchi va dars jarayoni reja va natijaga bog'langan bo'ladi.

Maktab ichidagi loyihalarni amalga oshirishga misol sifatida raqamli baholash tizimi joriy etish, innovatsion dars metodlarini sinash, tarbiyaviy loyihalar ("Mahalla bilan hamkorlik"), ekologik yoki ijtimoiy loyihalarni keltirish mumkin va bu loyihalar strategik maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Maktabni loyiha asosida boshqarish bosqichlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Maqsad va natijani aniqlash – loyiha maktab vizyoni va strategik maqsadlariga xizmat qilishi kerak.

Reja tuzish – resurslar, muddat va mas'ul shaxslar belgilanishi.

Joriy etish – loyihani bosqichma-bosqich amalga oshirish.

Monitoring va baholash – KPllar, natija tahlili va xulosa chiqarish.

Takomillashtirish va integratsiya – muvaffaqiyatli loyiha maktab tizimiga barqaror kiritiladi.

Loyiha boshqaruvi bilan strategik boshqaruvning o'zaro bog'liqligi 2-jadvalda aks ettirilgan.

2-jadval. Loyiha boshqaruvi bilan strategik boshqaruvning o'zaro bog'liqligi

Loyiha boshqaruvi	Strategik boshqaruv
Har bir loyiha aniq natija, muddat va mas'ul bilan boshqariladi	Maktabning vizyoni va missiyasiga xizmat qiladi
Loyihaning muvaffaqiyati uchun resurslar taqsimlanadi	Strategik maqsadlar uchun resurslar umumiy boshqariladi

Natijalar monitoring qilinadi va takomillashtiriladi	Strategik maqsadlar bo'yicha umumiy natijalar baholanadi
Pilot loyihalar orqali tajriba to'planadi	Kelajakdagi strategik qarorlar uchun asos bo'ladi

FOYDALANILGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

“Strategiya nima uchun kerak?” (Muammo–yechim muhokamasi)

Mavzu: Maktab boshqaruvida strategiyaning zarurati

Metod maqsadi. Tinglovchilarda maktab boshqaruvida strategik yondashuvning ahamiyatini anglash ko'nikmasini shakllantirish.

O'tkazish tartibi. Tinglovchilar 3–4 guruhga bo'linadi. Har bir guruhga savol beriladi:

Savol. “Agar maktabda aniq strategiya bo'lmasa qanday muammolar yuzaga keladi?”

Guruhlar quyidagi jadvalni to'ldiradi.

T/r	Muammo	Sabab	Strategiya orqali yechim
1.			
2.			
3.			
4.			
5.			

Yakunda guruhlar o'z xulosalarini taqdim etadi. Natijada tinglovchilar strategik boshqaruv zaruratini tushunadi.

“Missiya konstruktori” metodi

Mavzu: Maktab missiyasini shakllantirish

Metod maqsadi. Maktab missiyasini aniq va mazmunli shakllantirish ko'nikmasini rivojlantirish.

O'tkazish tartibi. Guruhlarga quyidagi savollar beriladi:

Maktab kim uchun xizmat qiladi?

Maktab qanday qadriyatlarni targ'ib qiladi?

Jamiyat uchun qanday natija beradi?

Guruhlar ushbu savollar asosida 1-2 jumladan iborat missiya matni ishlab chiqadi.

Ish jadvali

T/r	Maktab vazifasi	Qadriyatlar	Missiya matni
1.			
2.			
3.			

Natijada har bir guruh o'z maktabi uchun missiya loyihasini ishlab chiqadi.

“Kelajak maktabi” vizualizatsiya mashqi

Mavzu: Maktabning vizyoni (kelajak manzarasi)

Metod maqsadi. Tinglovchilarda maktabning kelajak rivojlanishini tasavvur qilish ko'nikmasini shakllantirish.

O'tkazish tartibi. Tilovchilarga trener tomonidan savollar beriladi. Jumladan: “Siz boshqarayotgan maktab 5 yil yoki 10 yildan keyin qanday bo'ladi?”

Guruhlar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tasvirlaydi:

ta'lim sifati;

texnologiyalar;

o'quvchilar natijalari;

infratuzilma.

Ish jadvali

T/r	Yo'nalish	Hozirgi holat	Kelajakdagi holat
1.			
2.			
3.			

Natijada tinglovchilar maktab vizyonini shakllantirishni o'rganadi.

SWOT tahlil qilish jadvali

SWOT omillari	O'quv jarayoniga taalluqli jihatlar	Misollar / izohlar
S – Strengths (Kuchli tomonlar)	Maktab o'quv jarayonining ijobiy jihatlar	Tajribali o'qituvchilar, yuqori o'quv natijalari, zamonaviy sinfxonalar, o'quvchilar olimpiada natijalari
W – Weaknesses (Zaif tomonlar)	O'quv jarayonidagi kamchiliklar	Ayrim fanlar bo'yicha past natijalar, metodik ishlarning sustligi, o'quvchilarning motivatsiyasi pastligi
O – Opportunities (Imkoniyatlar)	O'quv jarayonini rivojlantirish imkoniyatlari	Raqamli texnologiyalar, yangi o'quv dasturlari, malaka oshirish kurslari, grantlar
T – Threats (Xatarlar)	O'quv jarayoniga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan omillar	O'qituvchilar yetishmasligi, ota-onalar nazoratining sustligi, internetdan noto'g'ri foydalanish

SWOT TAHLIL UCHUN ISH JADVALI

Maktab nomi: _____

Tahlil o'tkazilgan sana: _____

Mas'ul shaxs: _____

Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
1.	1.
2.	2.
3.	3.
4.	4.
5.	5.
Imkoniyatlar (Opportunities)	Xatarlar (Threats)
1.	1.
2.	2.
3.	3.
4.	4.
5.	5.

SWOT TAHLIL NATIJASI ASOSIDA STRATEGIK QARORLAR

T/r	Aniqlangan muammo yoki imkoniyat	Amalga oshiriladigan chora	Mas'ul	Muddat	Natija
1.					
2.					
3.					
4.					

“PEST TAHLIL” AMALIY MASHQI

Tinglovchilarga quyidagi jadval asosida startegik tahlil qiladi.

T/r	O'quv jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar	Maktabga ta'siri
1.	Siyosiy	
2.	Iqtisodiy	
3.	Ijtimoiy	
4.	Texnologik	

“Maktab kelajagini tasavvur qilish” mashqi

Tinglovchilarga savol beriladi:

“Sizning maktab 5 yildan keyin qanday bo'lishini tasavvur qilasiz?”

Tinglovchilar quyidagilarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'z tasavvurlarini yozadi:

ta'lim sifati;

o'quvchilar natijasi;

infratuzilma;

texnologiyalar.

Keyin umumiy muhokama qilinadi.

“Strategik maqsadlar daraxti” metodi

Mavzu: Strategik maqsad va ustuvor yo'nalishlar

Metod maqsadi. Strategik maqsadlarni tizimli ravishda shakllantirish ko'nikmasini rivojlantirish.

O'tkazish tartibi. Doscaga asosiy strategik maqsad yoziladi. Guruhlar ushbu maqsadga erishish uchun ustuvor yo'nalishlarni aniqlaydi.

Diagramma

Strategik maqsad

/ | \

Yo'nalish Yo'nalish Yo'nalish

Natijada tinglovchilar strategik maqsadlarni ustuvor yo'nalishlarga ajratishni o'rganadi.

“Strategiyani amalga oshirish rejasi” metodi

Mavzu: Strategiyani amalga oshirish mexanizmlari

Metod maqsadi. Strategiyani amaliy harakatlar rejasiga aylantirish ko'nikmasini shakllantirish.

O'tkazish tartibi. Guruhlarga topshiriq beriladi. Masalan, “Strategik maqsadni amalga oshirish bo'yicha aniq harakatlar rejasini ishlab chiqing.”

Ish jadvali

T/r	Strategik maqsad	Amalga oshirish mexanizmi	Mas'ullar	Muddat	Natija
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					

Natijada tinglovchilar strategiyani operatsion rejalarga aylantirishni o'rganadi.

“O'zgarishlarga qarshilik” rol o'ynash metodi

Mavzu: O'zgarishlarga nisbatan qarshilikni boshqarish

Metod maqsadi. Rahbarlarda o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmasini rivojlantirish.

O'tkazish tartibi. Vaziyat beriladi. Masalan, maktabda yangi raqamli ta'lim tizimi joriy qilinmoqda, lekin ayrim o'qituvchilar bunga qarshi. Ushbu vaziyat bo'yicha ishtirokchilarga rollar bo'lib beriladi.

Rollar: direktor, o'qituvchi, ota-ona, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

Savol. Qanday qilib o'zgarishga qarshilikni kamaytirish mumkin? Ushbu masalani hal qilish bo'yicha ishtirokchilar o'z rollari doirasida harakat qiladi.

Natijada tinglovchilar transformatsion liderlik usullarini qo'llashni o'rganadi.

“Maktab loyihasi” (Project Design) metodi

Mavzu: Maktabni loyiha sifatida boshqarish

Metod maqsadi. Maktabda loyiha asosida boshqaruvni tashkil etish ko'nikmasini rivojlantirish.

O'tkazish tartibi. Har bir guruh maktab uchun bitta rivojlanish loyihasini ishlab chiqadi. Masalan, “Raqamli maktab”, “STEAM laboratoriya”, “Kitobxonlik maktabi” kabi loyihalarni amalga oshirish mumkin.

Ish jadvali

T/r	Loyiha nomi	Maqsad	Amalga oshirish bosqichlari	Natija
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				

Natijada tinglovchilar maktab ichki loyihalarini ishlab chiqish va boshqarishni o'rganadi.

Nazorat savollari

1. Ta'lim muassasasini boshqarishda strategik menejment tushunchasi nimani anglatadi?
2. Umumiy o'rta ta'lim muassasasining rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish qanday bosqichlardan iborat?
3. Maktabning missiyasi nima va uni shakllantirishda nimalarga e'tibor beriladi?
4. Maktab uchun strategik maqsadlarni belgilash jarayoni qanday amalga oshiriladi?
5. Strategik boshqaruvda ichki va tashqi muhit tahlili nima uchun muhim hisoblanadi?
6. Strategik baholash jarayonida maktabning kuchli va zaif tomonlari qanday aniqlanadi?
7. Tashqi muhit tahlilida imkoniyatlar va xavf-xatarlarni aniqlash qanday ahamiyatga ega?
8. Strategik tahlil natijalariga asoslanib muammolarni aniqlash va ularni hal qilish choralari ishlab chiqish qanday amalga oshiriladi?
9. Strategik rejalashtirish jarayonida ustuvor yo'nalishlar qanday belgilanadi?
10. Strategiyaning amalga oshirishda operatsion, taktik va strategik rejalar uyg'unligi qanday ta'minlanadi?
11. Strategik boshqaruv jarayonida transformatsion liderlik qanday rol o'ynaydi?
12. Maktab boshqaruvida strategiyaga ustuvorlik berish qanday natijalarga olib keladi?
13. Maktabni loyiha sifatida boshqarish tushunchasi nimani anglatadi?
14. Maktab ichida rivojlanish loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?

14. Strategik faoliyat natijalarini baholashda qanday ko'rsatkichlar va mezonlardan foydalaniladi?

16. Maktabda o'zgarishlarga nisbatan qarshiliklarni qanday qilib bartaraf etish mumkin?

Glossariy

Ichki muhit tahlili – ta'lim muassasasining ichki imkoniyatlari, resurslari, kuchli va zaif tomonlarini o'rganish jarayoni.

Loyiha asosida boshqaruv – maktab rivojlanishini ta'minlash uchun aniq maqsad va muddatlarga ega loyihalar orqali boshqaruvni tashkil etish.

Missiya – ta'lim muassasasining jamiyatlardagi vazifasi va faoliyatining asosiy mazmunini ifodalovchi g'oya yoki bayon.

Operatsion reja – strategiyani amalga oshirish uchun qisqa muddatli vazifalar va aniq ishlarni belgilovchi reja.

Strategik baholash – maktab faoliyatiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilish jarayoni.

Strategik faoliyat natijalari – strategiyani amalga oshirish jarayonida erishilgan natijalar va maktab rivojlanishidagi ijobiy o'zgarishlar.

Strategik faoliyatni amalga oshirish – ishlab chiqilgan strategiyani amaliyotga joriy etish va belgilangan chora-tadbirlarni bajarish jarayoni.

Strategik maqsad – maktab rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilovchi uzoq muddatli maqsadlar.

Strategik menejment – ta'lim muassasasining uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlash uchun strategiyani ishlab chiqish, amalga oshirish va natijalarini baholashga qaratilgan boshqaruv jarayoni.

Strategik rejalashtirish – aniqlangan muammolarni hal qilish va maqsadlarga erishish uchun uzoq muddatli harakatlar rejasini ishlab chiqish jarayoni.

Strategiya – maktabning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilovchi va maqsadlarga erishish yo'llarini ko'rsatib beruvchi uzoq muddatli reja.

SWOT tahlili – maktabning kuchli tomonlari (Strengths), zaif tomonlari (Weaknesses), imkoniyatlari (Opportunities) va xavf-xatarlarini (Threats) aniqlash usuli.

Taktik reja – strategik maqsadlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun oʻrta muddatli faoliyatni rejalashtirish.

Tashqi muhit tahlili – maktab faoliyatiga tashqaridan taʼsir koʻrsatadigan omillar, imkoniyatlar va xavf-xatarlarni oʻrganish jarayoni.

Transformatsion liderlik – rahbarning jamoani oʻzgarishlarga undash, motivatsiya berish va rivojlanishga yoʻnaltirish qobiliyatiga asoslangan boshqaruv uslubi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, T.: 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni, T.: 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmoni, T.: 2022.

Asosiy adabiyotlar

4. Ibragimov A., Xurramov I., Xudoyberdiyev E., Itolmazova G., Rejapova D., Xolmirzayev F., Mexmonov I., Sodiqov R., Ostanova X. O'quv-tarbiya jarayonini boshqarish. Toshkent. "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2025. – 192 b.
5. Ismailov A., Badalova M., Ergasheva M., Eshqobilov S., Muxammadiyeva D., Normatov S., Rahmonova G., Saidqulov S., Tursinboyev O., Xalilov T., Xidirova M., Xudoyberdiyev E.. Ta'limda liderlik va o'zgarishlarni boshqarish. Toshkent. "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2025. – 320 b.
6. Umarova H., Ismailov A., Xudoyberdiyev E. Ta'lim menejementi. Toshkent. "G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2025. – 256 b.
7. Xudoyberdiyev E.U. Maktab ta'limi sifatini oshirishda boshqaruv strategiyasining ahamiyati. "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnali. – T.:, 2023. 3-son, – B -89-93.
8. Xudoyberdiyev E.U. Maktab ta'limi sifatini oshirishda strategik rejalashtirishning ahamiyati. "O'zbekiston milliy universiteti xabarлари" ilmiy jurnali. – Toshkent, 2023. 1/6/1-son. – B-205-208.

9. Xudoyberdiyev E.U. Maktab ta'limini boshqarish strategiyasini belgilashda qadriyatlarning o'рни. "Pedagogika" ilmiy-nazariy va metodik jurnali. – T.:, 2023. 3-son, – B-152-156.

10. Xudoyberdiyev E.U. Maktab ta'limini boshqarishda strategik rejalashtirish dolzarb muammo sifatida. "Maktab va hayot" ilmiy-metodik jurnali. – T.:, 2023. 3-son. – B-9-11.

11. Xudoyberdiyev E.U. Maktablarda ta'limni strategik boshqarishning muammo va istiqbollari. "O'zbekiston milliy universiteti xabarları" ilmiy jurnali. – T.:, 2023. 1/4-son. – B-182-184.

12. Xudoyberdiyev E.U. Ta'limni boshqarishda strategiyadan foydalanish uzluksiz ta'lim uzviyligini ta'minlash omili sifatida. "Uzluksiz ta'lim" ilmiy-uslubiy jurnali. – T.:, 2023. 3-son. – B-22-26.